

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA ZUXRA SHAMSIDDIN QIZI**

**YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHNING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление авто реферат а диссертатсии доктора философии (PhD) по  
пофилософским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philosophical  
sciences**

**Karimova Zuxra Shamsiddin qizi**

Yangi O'zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillari:  
ijtimoiy-falsafiy tahlil.....3

**Каримова Зухра Шамсиддин қизи**

Духовно-просветительские факторы борьбы с наркоманией в Новом  
Узбекистане: социально-философский анализ.....

**Karimova Zukhra Shamsiddin kizi**

Spiritual and educational factors of the fight against drug addiction in New  
Uzbekistan: socio-philosophical analysis.....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA ZUXRA SHAMSIDDIN QIZI**

**YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHNING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2023.1.PhD/Fal904 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avto referati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat universiteti veb-sahifasi ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Dexkanov Narimon Burxonjonovich**  
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**G'aniyev Baxodirjon Sadikjanovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor v.b.

**Raxmonov Sunnatilla Mavlonovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel./faks: (998-69) 228-85-02; Web-sayt: [www.namdu.uz](http://www.namdu.uz), e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz) Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 1-qavat, 101-xona)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel./faks: (998-69) 228-85-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi.)

**R.T.Jo'rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

**Q.O.Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.I.Ismoilov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda giyohvandlik va narkotik savdosi bugungi kunga kelib dunyo bo'yicha ortib borishi orqali kishilar turmush tarzidagi nomuvofiqlikni kelirib chiqarmoqda. Jamiyatlarda ijtimoiy qarama-qarshiliklar manbaiga aylanmoqda, salomatlik kushandasi sifatida inson antropologiyasiga salbiy ta'sir qilmoqda, jamiyat barqarorligiga tahdid deb baholanib ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yemirilishining asosi deya izohlanmoqda. Demografik tarkibida yoshlari salmoqli o'rin tutadigan mamlakatlar va boshqa hamjamiyatlarda milliy xavfsizlik muammosiga aylanib bormoqda. Jahon statistik ma'lumotlriga ko'ra giyohvandlik dardiga chalingan qatlamning katta qismini yoshlar tashkil etishi uning ma'naviy-ma'rifiy omillarini falsafiy jihatdan tadqiq etish hozirgi kunda ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yoshlar – har qanday jamiyatning strategik salohiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy guruh sifatida, ularning intellektual, axloqiy va jismoniy salomatligi jamiyatning ertangi kunini belgilaydi. Shu bois, yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi samarali kurashish nafaqat tibbiy yoki huquqiy muammolar doirasida, balki kengroq – ijtimoiy-falsafiy kontekstda o'rganilishi ommalashib bormoqda.

Dunyoda yoshlar salomatligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlashga qaratilgan tizimli strategiyalar tobora dolzarb tus olmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) tomonidan yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha kompleks profilaktik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar orqali yosh avlod ongida sog'lom turmush tarzi, ma'naviy immunitet va ijtimoiy javobgarlik tamoyillari shakllantirilmoqda. Shuningdek, UNESCO va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hamkorligida ta'lim tizimi doirasida sog'lom hayot falsafasini o'rgatuvchi o'quv modullari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar yoshlarning psixoaktiv vositalardan yiroq turishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy ong va salomatlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqi doirasida EMCDDA giyohvandlikka oid statistik monitoring olib boradi va raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar, oila va maktab muhitining ta'sirini baholab, profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. AQShda esa SAMHSA ruhiy salomatlikni tiklash, stressni boshqarish va oilaviy terapiyani targ'ib qiluvchi treninglar tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurash masalasini rivojlantirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mazkur muammoning nafaqat huquqiy yoki tibbiy, balki keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tahlil qilinayotganini ko'rsatadi. Jamiyatda “yangi jamiyatning navqiron avlodi, fuqarolik mas'uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan barkamol yoshlar hayotga kirib kelayotgani va ularga munosib hayot sharoitlar yaratilayotganligi”<sup>1</sup> ni aytib o'tish lozim. Ma'rifiy va tarbiyaviy dasturlarni kengaytirish orqali yoshlar o'rtasida giyohvandlikka nisbatan hushyorlik hissini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda yoshlarni giyohvandlikdan asrash maqsadida ta'lim tizimi orqali ijtimoiy-ma'rifiy ishlar tizimli olib borilmoqda. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida “Giyohvandlikka qarshi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.29.

haftalik”lar, seminar-treninglar orqali sog‘lom turmush tarzi targ‘ib etilmoqda. “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” hamda Yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlar ishtirokida profilaktik dasturlar amalga oshirilmoqda. “Besh tashabbus” doirasida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rag‘batlantirishga qaratilgan loyihalar faoliyat yuritmoqda. “Yoshlar markazlari”da ijtimoiy aksiyalar, videoroliklar, treninglar o‘tkazilib, “tengdoshlar ta’siri” asosida samarali profilaktika modeli shakllanmoqda.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-oktabrdagi O‘RQ-971-son “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining yoki psixotrop moddalarning, shuningdek kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 6-maydagi PF-73-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning xududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 4-noyabrdagi 644-son “Alkogol, giyohvandlik vositalari ta’siridan yoki o‘zgacha tarzda mastlik holatida bo‘lgan shaxslarga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Antik davrda “giyohvandlik” atamasi hozirgidek aniq shakllanmagan bo‘lsa-da, o‘sha paytdayoq insonni ruhiy va jismoniy tanazzulga eltuvchi vositalardan tiyilish, halovat va fazilatga intilish ustuvor g‘oya sifatida Platon, Aristotel, Gippokrat<sup>2</sup> kabi klassik davr faylasuflari asarlarida alohida ahamiyat kasb etgan. Platon jamiyatning mukammal shaklini barpo etish, bunda har bir shaxs o‘z imkoniyatlarini haqiqiy ma’naviy kamolotga yo‘naltirishi zarurligi, haqida so‘z yuritarkan, insonni o‘z tabiiy mohiyatidan chalg‘itadigan, jumladan, sof aqlga zid keladigan odatlarni keskin tanqid qilgan. Xuddi shu ma’noda, Aristotel ham adolat, me’yor, halollik va matonat kabi fazilatlarni ta’kidlash bilan birga, bu fazilatlar yosh avlod ongida qay usulda shakllanishini yoritadi. Unga ko‘ra, insonni o‘z bilganicha

---

<sup>2</sup> Платон. Государство / Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н Трубетский проект, 2015. – 398 с.; Лурье С. Я. Демокрит: Тексты, перевод, исследования. – Ленинград: Наука, 1970. – 664 стр; Аристотель. Политика. – Москва: Издательство АТС, 2022. – 384 с.; Peltier, Leonard F. “The Genuine Works of Hippocrates”. Clinical Orthopaedics and Related Research, 2002. – 400 p.

betartib hayotga undovchi qusur – “nafsoniy hirsalar”dir. Gippokratning tajribalarida bevosita giyohvand moddalar atrofidagi tibbiy muammolarni anglatadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri terminlar mavjud bo‘lmasa ham, shifokorlar, tabiblar va jamiyatning bemor shaxslar oldidagi burchlari, turli vositalarning inson organizmiga zararli ta‘siri haqida mulohazalar bildiriladi.

Inson ma‘naviy kamolotini mustahkamlash muammosi o‘rta asr mutafakkirlarining ko‘plab asarlarida bilvosita yoki bevosita yoritilib kelgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, G‘azzoliy<sup>3</sup> kabi faylasuf-allomalar giyohvandlik tushunchasini hozirgi shaklda qayd etmasada, lekin insonni ma‘naviy tubanlikka, aql-idrokdan ajralishga yoki turli “ruhiy bandlik”ka olib keluvchi illatlardan tiyilishga alohida e‘tibor qaratishgan. Bu qarashlarning negizida o‘sha davr ijtimoiy muhitining o‘ziga xosligi, shuningdek, sharqona ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar yotadi.

Giyohvandlik muammosi, avvalo, shaxsning ruhiy-barqaror rivojlanishi hamda jamiyatdagi ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarning saqlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli turli xorijiy olimlar, faylasuflar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan har tomonlama tahlil etilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Z. Bauman, S. Jijek, M. Nussbaum, Y. Habermas, M. Fuko, J. Ravls, M. Kastells, U. Bek<sup>4</sup> kabi shaxsning ijtimoiy hayotida qat‘iy tayanchlar zaiflashayotgan bir sharoitda turli buzuvchi odat va illatlar, xususan, giyohvandlik keng tarqalishi, yoshlarning o‘z qobiliyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishlari uchun ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy omillar uyg‘un bo‘lishini, giyohvandlik kabi illatlarning jamiyatdagi ijtimoiy mexanizmlar bilan o‘zaro munosabatini turli jihatlardan yoritishadi.

Yoshlar o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish masalasi rus ilmiy makonida ham keng o‘rganilgan bo‘lib, bu muammo jamiyatning ijtimoiy, psixologik va falsafiy jihatlari bilan uzviy bog‘liqligi sababli turli fanlar kesimida tahlil qilib kelinadi. Xususan, rus olimlari L.A. Reznichenko, Y.V. Averina, V.A. Ovcharenko, V.M. Danilov, Y.P. Lutsenko, N.V. Mixaylovskaya, V.M. Danilov<sup>5</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan giyohvandlikning nafaqat organizmga, balki ma‘naviy-idrokka salbiy ta‘siri tahlil qilinadi va ayni paytda oldini olish, rehabilitatsiya, ijtimoiy nazorat hamda tarbiya masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

---

<sup>3</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004. – 160 b.; Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar. – Toshkent: Fan, 1987. – 322 b.; G‘azzoliy, Hujjatul-islom Abu Homid. “Ihyou Ulumiddin”. – Qohira: Dar al-Kutub, 2002. – 286 p.

<sup>4</sup> Bauman, Zygmunt. Liquid Modernity. Polity Press, 2000. – P. 58.; Žižek, Slavoj. Event: Philosophy in Transit. Penguin, 2014. – P. 69.; Nussbaum, Martha. Creating Capabilities: The Human Development Approach. Harvard University Press, 2011. – P. 105.; Habermas, Jürgen. The Theory of Communicative Action. Beacon Press, 1984. – P. 87.; Foucault, Michel. Discipline and Punish. Vintage Books, 1977. – P. 96.; Rawls, John. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1971. – P. 234.; Castells, Manuel. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2010. – P. 181.; Beck, Ulrich. Risk Society: Towards a New Modernity. Sage Publications, 1992. – P. 119

<sup>5</sup> Резниченко, Людмила Аркадиевна. Социальные проблемы наркомании. Автореферат диссертации кандидата социологических наук. – Москва: 2001. – 186 с.; Аверина, Елена Викторовна. Профилактика наркомании в российской школе. Автореферат диссертации кандидата педагогических наук. – Москва: 2003. – 192 с.; Овчаренко, Валентина Алексеевна. Педагогическая профилактика наркомании у подростков. Диссертации кандидата педагогических наук. – Москва: 2004. – 253 с.; Данилов, Виталий Максимович. Криминальная наркомания женщин, анализ и предупреждение. Диссертации кандидата юридических наук. – Москва: 2002. – 252 с.; Луценко, Елена Павловна. Методика расследования преступлений, совершенных наркоманами. Диссертации кандидата юридических наук. – Москва: 2001. – 218 с.; Михайловская, Наталья Владимировна. Суицидальное поведение больных опийной наркоманией. Диссертации кандидат медицинских наук. – Москва: 2005. – 159 с.; Данилов, Виталий Максимович. Криминальная наркомания женщин: анализ и предупреждение. Диссертации кандидат юридических наук. – Москва: 2002. – 252 с.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, turli fan vakillari – faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar va huquqshunoslar e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Mahalliy ilmiy-tadqiqotchilardan Y. Ergasheva, U. Qo‘chqorov, U. Rustamov U, A.A. Rasulev, I. Ismailov, I.Yu. Fazilov, Sh.T. Djumanov, J. Musayev, A. Erkaboyev, M. Palvanov<sup>6</sup> kabilar muammoning jamiyat hayotidagi salbiy ta‘siri, turli yosh toifalari faoliyatini izdan chiqarishi va ijtimoiy barqarorlikka rahna solishi ko‘proq huquqiy va sotsiologik jihatdan tahlil qilingan.

Mavjud tadqiqotlarda giyohvandlik masalasi asosan psixologik, sotsiologik yoki huquqiy yondashuvlar doirasida tahlil etilgan bo‘lib, bu yondashuvlar ko‘pincha muammoning faqat ma‘lum jihatlarini yoritish bilan cheklanadi. Mazkur dissertatsiyada esa ijtimoiy-falsafiy metodologiya asosiy konseptual mezon sifatida tanlanadi va u psixologik, pedagogik hamda huquqiy tahlil uslublari bilan uyg‘un holda kompleks tadqiq etiladi. Bunday yondashuv tor ixtisoslashuv chegarasidan chiqib, giyohvandlik hodisasining murakkab ijtimoiy-falsafiy tabiati va shaxs – jamiyat – giyohvandlik o‘rtasidagi ichki aloqadorlikni yaxlit tizimda anglash imkonini beradi. Shu tariqa, insonning axloqiy tanlovi, ijtimoiy ong holati, jamiyatdagi madaniy muhit va giyohvandlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik dialektik tafakkur asosida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “O‘zbekistonda milliy demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari (2017-2030-y.y)” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yangi O‘zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy omillarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

giyohvandlikning ijtimoiy mohiyatini ochib berish orqali uning yoshlar ongiga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy omillarini aniqlash;

yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning tarqalish sabablarining ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy hayotiga ta‘sirini ochib berish;

giyohvandlikka qarshi kurashishda ijtimoiy institutlar (oila, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari)ning rolini falsafiy jihatdan tahlil qilish;

yoshlar ongida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy va falsafiy yondashuvlarni asoslab berish.

**Tadqiqotning obyekti** ijtimoiy munosabatlar tizimida giyohvandlikka qarshi kurashning yoshlar ongi, xulq-atvori va hayot tarziga ta‘siri olingan.

---

<sup>6</sup> Ergasheva Y., Qo‘chqorov U., Rustamov U. Alkogolizm va giyohvandlik. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, 2020. – 124 bet; Rasulev A.A., Ismailov I., Fazilov I.Yu., Djumanov Sh.T. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashning huquqiy choralari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2014. – 113 bet; Musayev J. K. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanishining oldini olishda xalqaro huquqiy jihatlari. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2022. – 51 bet; Erkaboyev A. A. Markaziy Osiyoda giyohvandlik vositalarini nazorat qilish va ularning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2024. – 55 bet; Palvanov M. B. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishning javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgilari. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2024. – 30 bet.

**Tadqiqotning predmeti** yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy munosabatlar, qadriyatlar, g'oyalar va ularni shakllantiruvchi omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada dialektik, tizimli tahlil, analiz va sintez, sinergetik usullaridan, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yoshlar ijtimoiy ongida aksiologik immunitetni takomillashtirish, ijtimoiy tafakkurda dunyoqarashning ratsional va praksiologik jihatlarini rivojlantirib, giyohvandlikka qarshi kurashning mental xususiyatlariga ijobiy ta'sir qiluvchi natijador omil ekanligi ochib berilgan;

jamiyatda giyohvandlikka qarshi kurash strategiyalariga ijtimoiy ta'sir etuvchi, regulativ (nazorat qiluvchi), integratorlik (birlashtiruvchi), legitimlik (qonunlashtiruvchi) funksiyalarini rivojlantirish, atributiv kategoriyalar (ijtimoiylashuv, jamoaviylik, ijtimoiy nazorat va konsolidatsiya) ning madaniy transformatsiyasiga intensiv ijobiy ta'siri falsafiy asoslangan;

o'zbek kontekstida yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurash kompleks faoliyatning institusional (tenglik, qonuniylik, adolat) mezonlarini rivojlantirish, yoshlarda ijtimoiy ishonchni mustahkamlab, shaxsda statik (mavjud qonunlar) hamda dinamik (jamiyatning rivojlanishi qonunlari) qonunlarga nisbatan axloqiy mas'uliyatni oshirishi ochib berilgan;

jamiyatda an'anaviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlar ongida giyohvandlikni idrok etish ko'nikmasini mustahkamlab, giyohvandlikka qarshi kurash huquqiy javobgarlik va ijtimoiy murosasiz muhitni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy faol shaxs pozitsiyasini shakllantirish aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yoshlarda giyohvandlikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishda ta'lim tizimining praksiologik jihatlarini kishilarda ratsional turmush tarzini shakllantiruvchi stimullari ochib berilgan;

yoshlarni giyohvandlikdan saqlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ining ahamiyati jamoatchilik tashkilotlari va davlat muassasalari o'rtasida dialektik aloqadorligi asoslangan;

giyohvandlikka qarshi kurashishda yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqish, globallashtirish sharoitida innovatsion profilaktik choralarini ishlab chiqish barkamol avlod tarbiyasida dinamik o'zgarishlarga olib kelishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** xalqaro va respublika miqosdagi OAK ro'uxatiga kirgan ilmiy jurnal va konferensiyalarda maqola va ma'ruza shaklida muhokamasi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy yetilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati giyohvandlik hodisasiga faqat ijtimoiy yoki tibbiy muammo sifatida emas, balki chuqur falsafiy ildizlarga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida yondashish taklif etiladi. Yoshlar ongidagi giyohvandlikka moyillikni keltirib chiqaruvchi ma'naviy-inqiroziy sabablarga falsafiy nuqtai nazardan yondashish, shaxsning axloqiy tanlovi, mas'uliyati va hayotiy maqsadlari bilan uzviy aloqada o'rganish nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi ma'naviy bo'shliqlar,

qadriyatlar degradatsiyasi, ijtimoiy adolat masalalari hamda o'zlikni anglash jarayonlarining giyohvandlik tarqalishiga ta'sirini aniq mezonlar asosida tahlil qilish, falsafiy konsepsiyalar yordamida tushuntirish va ularga ziddiyatli faktor sifatida qarash ilmiy tadqiqot sohasini boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan konseptual qarash va metodik tavsiyalarni bevosita Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari (universitetlar, institutlar, kollejlari, texnikumlar)da yoshlar bilan ishlash jarayoniga integratsiya qilish, maktab ta'lim tizimida erta profilaktika va tarbiyaviy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, mahalla, oila va fuqarolik jamiyati institutlari (mahalla fuqarolar yig'inlari, yoshlar markazlari, nodavlat notijorat tashkilotlari)da giyohvandlikka qarshi sa'y-harakatlarni chuqurlashtirish, davlat boshqaruvi va qonun ijodkorligi organlari (Vazirliklar, parlament qo'mitalari)da yoshlar siyosatiga oid qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish idoralari (Ichki ishlar, prokuratura, sud tizimi)da profilaktik chora-tadbirlarni ijtimoiy-falsafiy yondashuv bilan mustahkamlash, sog'liqni saqlash muassasalari (profilaktika markazlari, reabilitatsiya klinikalari)da psixologik va ma'naviy-axloqiy asoslangan reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda ko'rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashishning ijtimoiy-falsafiy tahlili yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

yoshlar ijtimoiy ongida aksiologik immunitetni takomillashtirish, ijtimoiy tafakkurda dunyoqarashning ratsional va praksiologik jihatlarini rivojlantirib, giyohvandlikka qarshi kurashning mental xususiyatlariga ijobiy ta'sir qiluvchi taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Ichki ishlar organlarida Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish-oliy burchimiz" shiori ostida "Vatanparvarlik oyligi"ni o'tkazish to'g'risida"gi hamda 2023 yil 11 aprel kunidagi "Ma'naviyat oyligini o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishlari hamda ularni amalga oshirish bo'yicha dasturlar loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 24-sentyabrdagi 2/2474-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalaridan vazirlik tasarrufida o'tkaziladigan profilaktik tadbirlarning samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

jamiyatda giyohvandlikka qarshi kurash strategiyalariga ijtimoiy ta'sir etuvchi, regulyativ (nazorat qiluvchi), integratorlik (birlashtiruvchi), legitimlik (qonunlashtiruvchi) funksiyalarini rivojlantirish, atributiv kategoriyalar (ijtimoiylashuv, jamoaviylik, ijtimoiy nazorat va konsolidatsiya)ning madaniy transformatsiyasiga intensiv ijobiy ta'siriga doir xulosa va takliflaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining 5-yo'nalishida belgilangan "Jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash masalalari" 24-bandi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan monitoring hamda sotsiologik tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish va o'tkazish choralari ko'rish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 8

oktyabrdagi 391/1-son dalolatnomasi). Natijada yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olish va ijtimoiy sog'lomlashtirishga xizmat qilgan;

o'zbek kontekstida yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurash komplaens faoliyatning institusional (tenglik, qonuniylik, adolat) mezonlarini rivojlantirish, yoshlarda ijtimoiy ishonchni mustahkamlab, shaxsda statik (mavjud qonunlar) hamda dinamik (jamiyatning rivojlanishi qonunlari) qonunlarga nisbatan axloqiy mas'uliyatni oshirishiga olib kelishiga doir taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashining 2024-yil 8 noyabrdagi 1-466-son dalolatnomasi). Natijada, huquqni muhofaza qilish organlari, davlat xokimiyati idoralari, siyosiy partiyalar, nodavlat va notijorat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshiriga xizmat qilgan;

jamiyatda an'anaviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlar ongida giyohvandlikni idrok etish ko'nikmasini mustahkamlab, giyohvandlikka qarshi kurash huquqiy javobgarlik va ijtimoiy murosasiz muhitni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy faol shaxs pozitsiyasini shakllantirishiga oid taklif va xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Ichki ishlar organlarida Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish-oliy burchimiz" shiori ostida "Vatanparvarlik oyligi"ni o'tkazish to'g'risida"gi hamda 2023 yil 11 aprel kunidagi "Ma'naviyat oyligini o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishlari hamda ularni amalga oshirish bo'yicha dasturlar loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 24-sentyabrdagi 2/2474-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalaridan vazirlik tasarrufida o'tkaziladigan proflyaktik tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza shaklida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining ye'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop yetish tavsiya yetilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (4 ta Respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop yetilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, o'n bitta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning asosiy qismi 135 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya hajmi bo'yicha ma'lumotlar asoslangan.

Dissertatsiyaning "Yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashning nazariy-metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobida yoshlar o'rtasida

giyohvandlikka qarshi kurashni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Giyohvandlik tushunchasi jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida inson hayoti, sog‘lig‘i va ma‘naviy holati uchun jiddiy tahdidlar keltirib chiqaradi. Giyohvandlikning kelib chiqishi, uning ijtimoiy sabablari, tarqalish omillari hamda uning shaxs va jamiyat rivojiga ta‘siri haqida falsafiy tahlil yuritish, ayni paytda, favqulodda ahamiyatga ega. Zero, giyohvandlik nafaqat tibbiy yoki psixologik nuqtayi nazardan, balki insonning ruhiy-ma‘naviy, ijtimoiy va falsafiy o‘lchamlarini ham qamrab oladigan, ko‘p qirrali hodisadir. Giyohvandlik – bu nafaqat kimyoviy moddalarga qaramlik, balki keng ma‘noda hayotiy kontekstga singib ketgan ma‘naviy tanazzul, ijtimoiy moslashuv buzilishlari, iqtisodiy qiyinchiliklar va har xil ijtimoiy-diniy omillarning bir-biriga chambarchas bog‘lanishidir. Ushbu masala yuzasidan turli zamon va makondagi faylasuflar, jamiyatshunoslar va tibbiy mutaxassislar o‘z munosabatini bildirgan. Ular orasida o‘zbek mutafakkirlari, rus olimlari va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy polemikalari, yondashuvlari ham turlicha bo‘lib, bugungi kunda ham diqqat markazida turibdi.

Abu Ali Ibn Sino ilk o‘rta asrlarda sog‘liqni saqlash va insonga xos betobliklar haqida to‘liqroq tibbiy risolalar yozgan bo‘lsa-da, bevosita giyohvandlik termini haqida aniq eslatmalar kam uchraydi. Biroq u o‘zining “Tib qonunlari” asarida ayrim odatlarning odam sog‘lig‘iga qanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligiga to‘xtaladi<sup>7</sup>. Ibn Sinoning fikricha, inson tanasiga kirib boradigan moddalarning xususiyati aqliy salohiyatga ham ta‘sir qiladi. Mazkur nuqtai nazarni o‘rta asr tibbiy-falsafiy meros kontekstida izchil deb hisoblash mumkin, chunki u shaxsning aqliy va ruhiy barqarorligi o‘rtasidagi uyg‘unlikni alohida ta‘kidlaydi. Ibn Sino shu bilan birga, har qanday zararli moddaning haddan ziyod iste‘moli nafaqat jismoniy, balki aqliy-intelektual qobiliyatlar pasayishiga ham olib kelishi mumkinligini e‘tirof etadi. Shunday bo‘lsada, “giyohvandlik” atamasi uning asarlarida sistematik ravishda ko‘rib chiqilmagan. Biroq, Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy, tibbiy va falsafiy qarashlarini chuqur o‘rganar ekanmiz, giyohvand moddalarni iste‘mol qilish natijasida jismoniy va ruhiy xastaliklar kelib chiqishining ilmiy manbalarini sezishimiz mumkin. Ushbu ta‘kidlarga muvofiq, Ibn Sinoning qaramliklar, ayniqsa zararli odatlarga berilish xususida bildirgan mulohazalarini zamonaviy nuqtai nazar bilan uyg‘un deb ko‘ramiz. Chunki u inson sog‘lom hayot kechirishining asosi sifatida modda va ruh uyg‘unligini keltirib chiqargan.

Giyohvandlik tushunchasi haqida so‘z yuritilganda, ushbu atamaning falsafa fanlari doktori, professor Qiyom Nazarov “Jahon falsafasi qomusi” asarida quyidagicha izohlaydi. “Giyohvandlik (narkomaniya) –yunoncha jinnilik, qattiq berilganlik, qiziqish, intilish degan ma‘noni anglatib, inson ma‘naviyatiga zid bo‘lgan, uning ijtimoiy-ruhiy holatini butkul izdan chiqaradigan g‘oyat xatarli illat, xastalik; narkotik moddalarga o‘rganib qolib, ularni iste‘mol qilmasdan turolmaslik, giyohvandlik, bangilikdir”<sup>8</sup>. Biz professor Nazarovning bu xulosalariga to‘liq qo‘shilamiz, chunki giyohvandlik to‘lig‘icha jismoniy kasallik emas. U, avvalo, ijtimoiy moslashuv buzilishining, ruhiy beqarorlikning yoki shaxsiy ziddiyatlarning

<sup>7</sup> Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2020. – Б. 412.

<sup>8</sup> Қиём Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи китоб. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2022. – Б. 263.

natijasidir. Shu sababdan, giyohvandlikni yengish jarayonida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ish bilan ta'minlash, psixologik reabilitatsiya, madaniy va ma'naviy tiklanish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy o'zbek falsafasida giyohvandlik hodisasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida M. O'razaliyev giyohvandlikning nafaqat tibbiy, balki ma'naviy-ijtimoiy oqibatlarini keng qamrovli tahlil qiladi. O'razaliyevga ko'ra, "Giyohvandlikka tegishli vosita va moddalarni suiiste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan ularga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik. U jamiyatda ma'naviy bo'shliqlar, ya'ni insonning hayotda ma'no qidira olmay qolishi kabi holatlar giyohvandlikka tutashini izohlaydi"<sup>9</sup>. O'razaliyevning ta'kidlashicha, ma'naviy idealning zaiflashuvi, ijtimoiy muhitning beqarorligi hamda oilaviy barqarorlikning buzilishi giyohvandlikning keng tarqalishida muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bizning tadqiqotimiz yo'nalishi bilan hamohang bo'lib, insonning ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga keladigan disfunktsional omillar, xususan, oilaviy qo'llab-quvvatlovning sustligi, ijtimoiy izolyatsiya va emotsional bosim sharoitida shaxs turli "psixologik qochish" yo'llarini izlashga majbur bo'ladi. Giyohvandlik esa ko'pincha bu kabi muhitda shaxs tomonidan tanlanadigan muqobil vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'razaliyev ilgari surgan fikr Rossiya va G'arb olimlari tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar, xususan, giyohvandlikni "ijtimoiy kasallik" sifatida talqin qiluvchi paradigmalariga yaqinlashadi. Bu holat giyohvandlikni faqat individual tanlov emas, balki murakkab ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika tajribasiga nazar tashlaganimizda, giyohvandlik fenomeni bo'yicha davlat siyosatlari turli yo'nalishlarda yuritilishini ko'rish mumkin. Ba'zi davlatlarda "zararlarni kamaytirish" konsepsiyasi ham mavjud bo'lib, masalan, infeksiyon narkomanlarga steril shpritslar tarqatish, maxsus klinikalarda nazorat ostida metadon singari preparatlar berish, psixologik yordam dasturlari tashkil qilish kabi chora-tadbirlar ko'riladi<sup>10</sup>. Bunda jamiyat, tibbiy hamjamiyat va davlat vakillari giyohvandlar bilan hamkorlik qilib, ularni jamoaga qayta integratsiya qilishga harakat qiladilar. Ushbu model shaxsni faqat "jinoatchi" emas, balki ijtimoiy va psixologik ko'makka muhtoj inson sifatida ko'rishga asoslanadi. Shu bois, bu yondashuv jamiyatda stigmatizatsiyani kamaytirish, reabilitatsiya jarayonini insonparvarlik asosida olib borish va shaxsning jamiyatga qayta ijtimoiylashuvi uchun imkon yaratishga xizmat qiladi. Biroq bu tajribaning qaysi ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday samara berishini har bir jamiyat o'zining axloqiy qadriyatlari, huquqiy normalari va ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqib baholashi lozim. Shu ma'noda, mazkur konsepsiyani tanqidiy tahlil qilish ijtimoiy-falsafiy muhokama uchun dolzarb masala bo'lib qoladi.

Giyohvandlik masalasida Sharq va G'arb mutafakkirlari o'rtasida mavjud polemika, odatda, masalaning axloqiy ko'lami, ijtimoiy profilaktika choralari va davolash metodlarida uyg'unlashuv yoki tafovutlarda namoyon bo'ladi. Xususan, G'arb davlatlarida giyohvandlik ko'proq "tibbiy va huquqiy masala" sifatida ko'rilsa,

<sup>9</sup> Ўразалиев М. Қ. Жиноятчилик билан алоқадор бўлган ижтимоий салбий ходисаларнинг сабаблари ва уларнинг олдини олиш. Монография. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2023. – Б. 24.

<sup>10</sup> UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). World Drug Report. – New York: United Nations Publications, 2021. – P. 12–117.

Sharqda uning axloqiy, diniy va an'anaviy oqibatlariga ham e'tibor kuchli. Jumladan, O'zbekistonda diniy idora vakillari, masjid imomlari, ma'rifat targ'iboti bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ham giyohvandlikka qarshi faol kurash olib borishadi. Bu, o'z navbatida, mahalliy mentalitetda ijtimoiy illatlarni birgalikda bartaraf qilish mexanizmlari mavjudligini ko'rsatadi. G'arb olimlaridan ayrimlari esa bunday munosabatda "shaxs erkinligi" me'yorlari buzilishi, "individual huquqlar cheklanishi"ni ko'rishi mumkin. Demak, giyohvandlik masalasi murakkab ijtimoiy-falsafiy ziddiyatlar tug'diradi: shaxs erkinligi va jamiyat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanat, diniy qadriyatlar va insonning o'z tanasi ustidan egalik huquqi, repressiv siyosat va zararlarni kamaytirish siyosati o'rtasida bahs va munozaralar davom etadi.

Bizningcha, zamonaviy jamiyatda giyohvandlik muammosi faqat shaxsiy tanlov yoki individual nuqsonlar mahsuli emas, balki murakkab, ko'p darajali ijtimoiy-hayotiy omillar majmuasi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan sistematik ijtimoiy deviantlik shaklidir. Ushbu muammoning asosiy determinantlari bir nechta asosiy strukturaviy bloklarda mujassam bo'ladi.

Birinchi, **iqtisodiy omillar** - global iqtisodiy beqarorlik, mehnat bozorining segmentatsiyasi, ishsizlik darajasining o'sishi va ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi natijasida yuzaga keladigan marginal holatlar, giyohvandlikka ijtimoiy immuniteti past guruhlar orasida keng yo'l ochadi.

Ikkinchi, **ma'naviy-intelektual inqiroz** - an'anaviy ijtimoiy institutlar (xususan, oila, ta'lim va din) tomonidan shakllantiriladigan axloqiy mezonlar zaiflashgan bir paytda, shaxs ma'naviy yo'naltiruvchi va identifikatsion model yetishmovchiligi oqibatida egotsentrik va deviant xulq-atvor yo'liga osonroq kiradi.

Uchinchi, **psixologik omillar**: ijtimoiy stress, yolg'izlik hissi, depressiv holatlar va psixologik beqarorlik shaxsning ichki rezistentligini pasaytiradi va u muqobil "eshik" sifatida giyohvandlik vositalariga murojaat qiladi.

To'rtinchi, **biogenetik predispozitsiyalar** - ya'ni irsiy moyillik, nevropsixik noziklik, metabolik zaifliklar kabi omillar individual zaiflik zaminini yaratadi.

Mazkur omillar o'zaro murakkab interaktsiyaga kirishib, giyohvandlikni faqat individual tanlov emas, balki ijtimoiy muhit va strukturaviy kontekst mahsuli sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, narkotik moddalar savdosi ko'pincha transmilliy jinoiy guruhlar, ekstremistik harakatlar va noqonuniy iqtisodiy tarmoqlar bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat xavfsizligi va davlat barqarorligiga jiddiy tahdid tug'diradi. Bu holat BMT, WHO, va UNODC kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, ular bu muammoni global xavfsizlik doirasida tahlil qilmoqda.

Dissertatsiyaning "**Ijtimoiy institutlarning giyohvandlikka qarshi kurashdagi o'rni va uning falsafiy asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida ijtimoiy institutlarning giyohvandlikka qarshi kurashdagi rolini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishga bag'ishlangan dissertatsiya bobi ushbu muammoni hal qilish kontekstida jamiyatning turli institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy jihatlari va xususiyatlarini ochib beradi.

"Ijtimoiy institut" tushunchasi falsafa, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda jamiyat hayotining strukturaviy va funksional asoslarini belgilovchi, insonlararo munosabatlarni tartibga soluvchi va ijtimoiy tizimlarning barqarorligini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida talqin qilinadi. Oddiy ifoda bilan aytganda, ijtimoiy

institutlar – bu jamiyatda izchil ijtimoiy faoliyatni tashkil etuvchi va tartibga soluvchi me'yoriy tuzilmalar majmuasidir. Ular orqali inson o'zining asosiy ehtiyojlari va manfaatlarini ro'yobga chiqaradi, shuningdek, ma'naviy, iqtisodiy va madaniy qadriyatlar uzviy ravishda saqlanadi hamda takror ishlab chiqiladi.

Mazkur kategoriya o'z mohiyati jihatidan kompleks va ko'p qatlamli bo'lib, oiladan tortib davlatgacha, ta'limdan tortib iqtisodiy tizim va din institutlarigacha bo'lgan turli sotsiomadaniy sohalarni qamrab oladi. Ijtimoiy institutlarga oid falsafiy yondashuvlar ichida funksionalizm muhim o'rin egallaydi. Masalan, T. Parsons va R. Merton<sup>11</sup> kabi nazariyotchilar ijtimoiy institutni ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi, shaxslar xatti-harakatlarini normativ me'yorlar asosida cheklovchi va ijtimoiy rollarni taqsimlovchi tizim sifatida izohlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, jamiyatda har bir institut muayyan funksiyani bajaradi: oila – reproduktiv va tarbiyaviy, din – ma'naviy birdamlik va axloqiy me'yornlarni shakllantirish, iqtisod – ishlab chiqarish va resurslar taqsimoti, siyosat – hokimiyatni legitimlashtirish va boshqaruvni tashkil etish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Oila instituti insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy va universal ijtimoiy institutlaridan biri sifatida tarixiy-madaniy barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizm sanaladi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida bu institutning strukturaviy ko'rinishi va funksional mazmuni mafkuraviy, siyosiy hamda iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgarib kelgan bo'lsa-da, uning asosiy ijtimoiy-falsafiy funksiyasi – jamiyatning reproduktivligini ta'minlash, ya'ni yangi avlodni kamolga yetkazish, avlodlararo madaniy va ma'naviy merosni translyatsiya qilish va shaxsni ijtimoiylashtirishdan iboratligicha qolmoqda.

Bugungi global muammolardan biri – giyohvandlik illati, nafaqat individual, balki makrosotsial darajadagi ijtimoiy inqiroz belgisi sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu tahdidga qarshi kurashda faqat huquqiy va tibbiy choralar bilan chegaralanish samarasizdir. Aksincha, mazkur muammoning ildizlarini anglashda ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, oila ijtimoiy institut sifatida giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktik funksiyani bajaruvchi asosiy muhit bo'lib xizmat qiladi. Chunki shaxsda axloqiy ongning shakllanishi, hayotiy qadriyatlar tizimining barpo bo'lishi va ijtimoiy mas'uliyat hissining uyg'onishi, avvalo, oilaviy muhitda ro'y beradi.

Oilaning bu vazifasi turli ma'naviy-falsafiy ta'limotlarda, jumladan, Sharq mutafakkirlarining asarlarida, Rus sotsiologik an'alarida va G'arb faylasuflarining nazariy izlanishlarida ham o'ziga xos tarzda ta'riflab berilgan. O'zbek ma'rifatparvarlaridan boshlab, zamonaviy mustaqil O'zbekiston davridagi olimlarimizgacha bo'lgan ilg'or fikrlar jamiyatda giyohvandlik kabi salbiy illatlarning oldini olishda oilaning tutgan o'rnini ta'kidlashadi. Jumladan, o'zbek ma'rifatparvar mutafakkiri Abdulla Avloniy oilaviy tarbiyani “eng muhim ma'naviy vazifa” sifatida baholab, bolalarning ongini yuksaltirish va ularni turli zararli ta'sirlardan asrash aynan oilada boshlanganini qayd etgan edi<sup>12</sup>. Avloniy sharhlaganidek, “Oila a'zolari farzand tarbiyasiga mas'ul ekani, ularning qaysi yo'lga yurishini belgilovchi asosiy omil

<sup>11</sup> Парсонс Т. Социальная система / пер. с англ. – М.: Академический Проект, 2002. – 544 с.; Мертон Р. Социальная теория и социальная структура / пер. с англ. – М.: АСТ, 2006. – 880 с.

<sup>12</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Cho'lpon” nashriyoti, 2017. – B. 45.

bo‘lishi” giyohvandlik kabi illatlarga moyillikning dastlabki ildizlarini o‘z vaqtida yo‘q qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu fikrni davom ettirib, Sharq falsafasida juda qadim zamonlardan buyon oila inson shakllanishining beshigi, u eng avvalo axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar maktabi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Abdurauf Fitrat o‘zining ma’naviy merosida oila masalasiga maxsus e’tibor qaratadi. Uningcha, oila bu: “Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya’ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo‘lib bir-birlariga yordam berib yashashlari, kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya’ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mavh va nobud bo‘lg‘ay”<sup>13</sup>.

Tadqiqotchi-olimlardan D.T. Ismatova o‘z tadqiqotida zamonaviy oila institutini tahlil qilarkan, “oiladagi emotsional zo‘riqishlar, o‘z navbatida o‘smirlarning kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning ta’lim-tarbiya jarayonida bir qancha muammolarni keltirib chiqarishini, o‘smirlarning shaxslararo munosabatga, hayotiy vazifalarini belgilashdagi shuningdek, ijtimoiy rolini aniqlash zarurati dolzarb ahamiyat kasb etayotganini aytad”<sup>14</sup>. Mazkur tadqiqotda oiladagi o‘zaro ishonch, hurmat, hamjihatlik, mas’uliyat hissi, jamiyatning qadriyatlari va turmush tarzini saqlashda eng asosiy himoya chizig‘i bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi. Giyohvandlikka qarshi profilaktik kurashda davlat siyosati, huquqiy chora-tadbirlar va tibbiy yordam bilan bir qatorda, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, har bir shaxsning faqat o‘z hayotiga emas, balki butun oila va jamiyat hayotiga ham mas’ullik hissi bilan yondashuvini tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Demak, giyohvandlik kabi xavfli illatga tortilish ko‘p hollarda nafaqat iqtisodiy yoki shaxsiy psixologik inqirozlar, balki oiladagi e’tibor va tarbiya bo‘shlig‘i, beparvolik ham sabab bo‘lishini qayd etadi. Shu ma’noda, biz ushbu fikrga qo‘shilamiz va oila – mustahkam qadriyatlar o‘chog‘i ekani, ayni shu jihat esa giyohvandlikning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishini alohida e’tirof etamiz.

Mavzuga oid tadqiqotlarda, xususan, K. Najmiddinova o‘zining tadqiqotida “oila birinchi galda, shaxsiy munosabatlar sohasi bo‘lganligi sababli, yoshlarda shaxsiy munosabatlarning axloqiy me’yorlarini, odob qoidalarini tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi. Shunday qilib, oila o‘giti ijtimoiy hayotda tarbiya jarayonini uyushtirishning o‘ziga xos sohasi va omili hisoblanadi”<sup>15</sup> – deb ta’kidlaydi. Najmiddinovaning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, oiladagi har bir a’zo, xususan, ota-onalar tomonidan muntazam nazorat va qo‘llab-quvvatlash bo‘lishi, yoshlarning muammolariga befarq bo‘lmaslik, ularning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish kabi omillar giyohvandlik illatining oldini olishda samarali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biz olim tomonidan ilgari surilgan ushbu nuqtai nazariga qo‘shilamiz, shu bilan birga, fikrimizcha, bu nazorat va qo‘llab-quvvatlash me’yoridan oshmasligi, oilaviy tarbiya jarayonida zo‘ravonlik va zug‘umga aylanib ketmasligi

---

<sup>13</sup> Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 7.

<sup>14</sup> Исматова Д.Т. Оилавий муносабатларда эмоционал зўриқишларни коррекциялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 52 б.

<sup>15</sup> Нажмидинова К. У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2006. – 24 б.

lozim. Aks holda, haddan tashqari qattiqqo‘llik ham yosh avlodda norozilik uyg‘otishi, natijada ularni norasmiy guruhlar yoki zararli illatlar tomon yo‘naltirishi mumkin.

G‘arbiy adabiyotlarda oilaning funksiyalari ko‘proq shaxsiy erkinlik, individuallik, psixologik muvozanat masalalari bilan bog‘lanib o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi globallashuv zamonida mazkur yondashuvlar ham o‘zgarish arafasida. Masalan, zamonaviy g‘arb mutafakkirlaridan Jan Bodriyar iste‘mol jamiyati nazariyasida oilaning qisqarishi, ommaviy madaniyatning kuchayishi va bularning odamlarning ongiga ta‘siri haqida so‘z yuritadi<sup>16</sup>. Jan Bodriyar konsepsiyasiga ko‘ra, giyohvandlik – iste‘mol jamiyatining inson psixikasiga va ijtimoiy ongiga ko‘rsatgan destruktiv ta‘sirining ifodasidir. Insonlar real ehtiyojlardan emas, balki ommaviy madaniyat tomonidan sun‘iy tarzda yaratilgan, simulyativ xarakterga ega bo‘lgan ehtiyojlar ortidan quvib, o‘z hissiy va ruhiy holatini muqobil, lekin xavfli usullar – jumladan, psixoaktiv moddalarga murojaat qilish orqali boshqarishga urinadi. Bu holat, aslida, shaxsiy identitet inqirozi, ekzistensial bo‘shliq va ma‘naviy dezorientatsiyaning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, oilaning an‘anaviy axloqiy-me‘yoriy tizimlariga tayanishi – ya‘ni ma‘naviy ijtimoiylashtirish instituti sifatidagi funksiyasi – shaxsni ijtimoiy va ruhiy tubanliklardan, jumladan giyohvandlikdan asrashda muhim preventiv omilga aylanadi. Bodriyar ta‘kidlashicha, agar oila “ma‘naviy iste‘mol” – ya‘ni, axloqiy qadriyatlar asosida ehtiyojlarni shakllantirish va qondirish – makoniga aylansa, shaxsda yolg‘izlik, begonalashuv va bo‘shliq tuyg‘ulari kamayadi, bu esa psixoaktiv vositalarga murojaat ehtimolini pasaytiradi.

Mazkur yondashuv, o‘z mohiyatiga ko‘ra, aktual va nazariy jihatdan boy bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari haddan tashqari umumlashtirilgan va normativ tavsifga ega. Chunonchi, Bodriyardning oilaning klassik strukturasi va funksiyalarining so‘nishi haqidagi mulohazalari, barcha sivilizatsion kontekstlar uchun universal deb bo‘lmaydi. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oilalar hozir ham axloqiy nazorat, qadriyatlar transmissiyasi va shaxsiy ijtimoiylashtirishning asosiy manbai bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali global xulq-atvor modellari translyatsiya qilinayotgan davrda, oilaning selektiv va interpretativ funksiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, giyohvandlikka qarshi kurash faqat davolash yoki huquqiy usullar bilan cheklanmasligi, balki keng ma‘nodagi ma‘naviy tarbiya jarayonini ham o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu jarayonning markazida oila instituti turadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarini tiklash va mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Misol uchun, Ma‘rifat targ‘ibotchilari, jamoat tashkilotlari, mahalla faollari, ta‘lim muassasalari hamda oilalar hamkorligida turli seminarlar, davra suhbatlari, tadbirlar tashkil etilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarning nazariy poydevori sifatida falsafiy, sotsiologik va pedagogik tadqiqotlar xizmat qilmoqda.

Ta‘kidlash joizki, zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi masalasi faqatgina ijtimoiy, iqtisodiy yoki ma‘naviy-madaniy muammolar doirasidagina emas, balki chuqur falsafiy hamda pedagogik tahlilni ham talab qiladigan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Xususan, yoshlar o‘rtasida narkotik moddalarga qarshi kurash jarayonida ta‘lim

---

<sup>16</sup> Baudrillard J. The consumer society. – Paris: Gallimard, 2000. – P. 145.

muassasalarining tutgan o'rnini, bugungi kunda global darajada e'tibor qaratilayotgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida maydonga chiqqan. Bu masalada ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar zahirida nafaqat ta'lim-tarbiya, balki ijtimoiy ong, ma'naviyat, qadriyatlar, shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonlari va shu bilan birga, siyosiy-ijtimoiy institutlarning hamkorligi kabi omillar ham chuqur tadqiqotni talab etadi. Narkotik vositalarning yoshlar ongiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini kamaytirish va bu illatning jamiyat ravnaqi uchun xavfli oqibatlarini oldini olish nuqtayi nazaridan, avvalo, ta'lim muassasalari qanday ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, tarbiyaviy va falsafiy tamoyillarni ilgari surishi lozimligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasalari – maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari – shaxsning ijtimoiylashuvi va axloqiy kamoloti shakllanishida markaziy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashish masalasi ta'lim-tarbiyaning kontseptual asoslari bilan uzviy bog'liqdir. Bu boradagi strategik yondashuv, birinchidan, yosh avlodga zamonaviy bilimlar majmuasini yetkazish; ikkinchidan, mustahkam axloqiy ong va qadriyatlar tizimini shakllantirish; uchinchidan esa, mustaqil va tanqidiy tafakkur madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Insonning intellektual va ma'naviy salohiyatini uyg'un holda rivojlantirish – uni turli deviant holatlarga nisbatan barqaror immunitetga ega, mas'uliyatli ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsiy-ijtimoiy ongni shakllantiruvchi ontologik va aksiologik maydon sifatida talqin etilishi lozim.

Avvalo, o'zbek ma'rifatparvarlari va faylasuflarining ta'lim orqali yoshlar ongini uyg'otish, ularni turli illatlarga, jumladan, giyohvandlikka moyillikdan asrash borasidagi g'oyalari alohida e'tiborli. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida ta'lim-tarbiyaning axloqiy negizlarini shakllantirishga urg'u beradi. Uning fikricha, kishining halol mehnati, odob-axloqi va ongli xulq-atvori jamiyatning toza muhiti garovidir, chunki axloqiy tarbiya inson ruhiyatiga tahdid soluvchi illatlarni barvaqt payqash va ular bilan kurashishga qudrat beradi<sup>17</sup>. Avloniy ta'limning asosiy maqsadi deb voyaga yetayotgan yoshda insonparvarlik, xushmuomala, qanoat, poklik kabi fazilatlarni singdirish orqali ularda tanqidiy tafakkur hamda yuksak ijtimoiy mas'uliyat hisini uyg'otishni biladi. Bu mulohazalardan yoshlarning giyohvandlikka berilishining oldini olishda ilk ta'lim bosqichidanoq muntazam ravishda sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish, psixologik va axloqiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurligi kelib chiqadi. Shu bilan birga, Abdurauf Fitrat ham yoshlar tarbiyasiga oid asarlarida, xususan “Rahbari najot” risolasida, “inson o'z ustida ishlashni to'xtatgan zahoti, atrof muhit oqimiga tushib, turli illat va balolar girdobida qolishi”ni qayd etadi<sup>18</sup>. Fitrat ta'lim muassasalarini nafaqat ilm beradigan, balki “ma'naviy tarbiya makoni” sifatida tushunib, bu maskanlarda yaratilgan odob-axloq muhiti yoshlarning buzg'unchi g'oyalar va zararli illatlarga berilmasligi uchun mustahkam qalqon vazifasini bajarishi lozim deb hisoblaydi.

---

<sup>17</sup> Намазова Ю. М. XIX аср охири – XX аср бошларида туркистонда таълим фалсафаси. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 49 б.

<sup>18</sup> Абдурауф Фитрат. Раҳбари најот. – Тошкент, 2000. – Б.47. <https://kutubxona.samduuf.uz/book?id=803>

Ma'lumki, ta'lim muassasalari narkotik moddalarga qarshi kurash jarayonida faqat ma'ruzalar yoki nazorat bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarning tafakkurini mustaqil va tanqidiy yo'nalishda rivojlantirish, ularning hayotiy maqsadlarini aniq shakllantirishga ko'maklashish orqali ham faol ishtirok etishi zarur. Xususan, zamonaviy ijtimoiy sharoitda turli xavflarning oldini olish hamda ma'naviy-axloqiy immunitetni kuchaytirish uchun tarbiya masalasida bir nechta falsafiy maktablar integratsiyasiga ehtiyoj bor. Ta'lim shakllari, texnologiyalari takomillashgan sari, yoshlar onggida tanqidiy tafakkur va ma'naviy barkamollikni uyg'otish imkoniyatlari kengayadi. Bu borada, masalan, rus faylasufi Nikolay Berdyaevning "inson o'z irodasini ma'naviy tarbiya orqali mustahkamlamasa, nafaqat turli zararli oqimlar, balki o'z qalbidagi yovuz mayllar qurboniga aylanadi" degan fikri e'tiborga loyiqdir<sup>19</sup>. Berdyaevning insof, iroda va ma'naviy qudrat masalasiga doir qarashlari, aslida, giyohvandlik muammosining chuqur ildizlari borligidan dalolat beradi. Uning nazarida, inson irodasi birlamchi bo'lib, u ongli ravishda shakllantirilmasa, turli tashqi ta'sirlarga, jumladan, zararli moddalarga ham osonlikcha berilib ketadi. Shuning uchun, deydi faylasuf, ta'lim-tarbiyada iroda tarbiyasi hamma narsadan ustun turishi va har bir shaxs o'z "ichki men"i oldida mas'ul ekani chuqur singdirilishi lozim. Aynan shu jihat, narkotik moddalarga qarshi kurashning asosiy falsafiy tushunchasiga aylanadi.

Berdyaevning ushbu qarashlariga qarshi chiqqan rus ma'rifatparvarlaridan ayrimlari, xususan, Konstantin Leontyev esa "giyohvandlikka qarshi kurash birgina ma'naviy tarbiya yoki iroda mustahkamligi bilan cheklanmasligi, balki jamiyat ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tizim, iqtisodiy ahvol, huquqiy me'yorlar bilan ham keng integratsiyada bo'lishi kerak" ligini ta'kidlaydi. Leontyevning fikricha, har qanday ma'naviy sa'y-harakat, agar qonunchilik bazasi sust bo'lsa, oilalar ijtimoiy himoyadan chetda qolsa, bandlik bilan bog'liq muammolar yechilmagan bo'lsa, yakunda samara berishi qiyin. Ammo, Berdyaev bunday e'tirozlarga javoban, "jamiyatni isloh qilish avvalo kishi ongidan boshlanadi; qonun – tashqi cheklov, axloq – ichki cheklovdir, bu ikki yo'nalish mukammal uyg'unlashmas ekan, ta'lim ham to'liq samara bera olmaydi"<sup>20</sup>, deya fikr bildiradi. Ushbu polemika, aslida, narkotik vositalarga qarshi kurashda faqat "davlat nazorati"ni kuchaytirish yoki "ma'rifiy-tarbiyaviy" targ'ibotni intensivlashtirish bilangina cheklanmasdan, har ikki jihatni uyg'un ravishda olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning "**Yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olish amaliyotini rivojlantirish istiqbollari**" deb nomlangan uchinchi bobida yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va madaniy jihatlar tahlil qilingan. O'zbekistonda yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurash masalasi nafaqat xavfsizlik yoki tibbiy muammo sifatida, balki keng ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy hamda falsafiy poydevorga ega jarayon sifatida ham ko'rib chiqilishi lozim. Giyohvandlik insonning oqilona tafakkurini susaytiruvchi, jamiyat taraqqiyotiga raxna soluvchi va ayniqsa yosh avlod salomatligi hamda ma'naviy kelajagiga jiddiy xavf tug'diruvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Bu muammo faqat ayrim guruhlariga xos bo'lgan cheklangan illat

---

<sup>19</sup> Бердяев, Николай. Философия свободы. – Москва: Республика. 2001. – С. 65.

<sup>20</sup> Бердяев, Николай. Философия свободы. – Москва: Республика. 2001. – С. 69.

emas, balki globallashuv davridagi turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar ta'sirida shakllanadigan, ijtimoiy institutlar nazorati zaiflashgan sharoitda tobora kengayib borishi mumkin bo'lgan keng qamrovli xavfdir. Ayniqsa O'zbekistonda demografik salohiyatning nisbatan yuqoriligi, yoshlar hissasining boshqa davlatlarga qaraganda anchayin salmoqliligi giyohvandlik muammosini dolzarb mavzulardan biriga aylantiradi. Shu bois, bugungi kundagi davlat siyosati va amaliy dasturlar, eng avvalo, giyohvandlikni tizimli ravishda oldini olishga, yoshlarning salomatligi, ma'naviy va intellektual kamolotini kafolatlashga yo'naltirilmog'i darkor.

BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 27 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumayotgani taassuflidir. Keyingi paytlarda giyohvand va psixotrop moddalarning inson salomatligiga ziyoni haqida ko'p gapirilayotganiga qaramay, afsuski, yoshlar orasida bu zararli moddalarga qiziqish saqlanib, ertamiz egalarining bu illat domiga bilib-bilmay tushib qolayotgani achinarli holdir.

Xo'sh, giyohvandlikka batamom barham berish, bu illatning oldini olish uchun nima qilmoq kerak?

Bunda davlat siyosati, eng avvalo, huquqiy-hokimiyat nuqtayi nazaridan zarur me'yoriy hujjatlar qabul qilish, amaliy dasturlarni rejalashtirish va ularni muvofiqlashtirish orqali namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab giyohvand moddalar oqimini nazorat qilish, ularni noqonuniy tarqatishga qarshi keskin choralar ko'rish, profilaktika va rehabilitatsiya ishlarini tizimlashtirishga doir qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlar giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan xavfsiragan yoki ushbu illat domiga tushib qolgan shaxslar bilan ishlash, ularni jamiyatga qayta moslashtirishda muhim poydevor hisoblanadi. Zero, har qanday davlat siyosati huquqiy asosga tayansa, natijadorlik yuqori bo'ladi. O'zbekiston misolida so'nggi yillarda qabul qilingan qator qonunlar, prezident farmonlari va hukumat qarorlari yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olish masalasini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab kelmoqda. Mazkur hujjatlarda profilaktik chora-tadbirlar, giyohvandlikka doir jinoyatlarga nisbatan jazoni kuchaytirish, shu bilan birga, giyohvandlik qurbonlariga ko'maklashish mexanizmlari aniq belgilab qo'yilgan.

Strategiyalar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, avvalo, sotsiologik tahlillar orqali yoshlar o'rtasida giyohvandlikka bo'lgan munosabatni aniqlash muhimdir. Bunday sharoitda maxsus so'rovlar, intervyular, fokus-guruhlar o'tkazib, yoshlar qanday omillar tufayli giyohvand moddalarga ro'yxat qilishi yoki undan voz kechishi aniqlanadi. Iqtisodiy holat, oilaviy muhit, ma'naviy qadriyatlar, do'stlar davrasi kabi bir nechta omillar bu jarayonda muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, turli tekshiruvlar natijasiga ko'ra, birinchi marta giyohvand moddalarni sinab ko'rish yoshlar o'rtasida ko'proq yoshlikda ma'lum taassurotlar (qiziquvchanlik, guruh bosimi, tushkunlik yoki stress) bilan bog'liqligi aniqlangan. Shu sababli, giyohvandlikka qarshi kurashda yoshlar faolligini oshirish metodlarida aynan shu omillardan kelib chiqib ish tutish muhim bo'ladi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan giyohvandlikka qarshi choralar keng qamrovli bo'lishi shart, chunki giyohvandlik – bu nafaqat shaxsiy tanlov, balki jamiyatdagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy holat bilan

chambarchas bog‘liq murakkab tizimdir. Yoshlar ongida ushbu illatga qarshi ongli munosabat shakllanishi uchun eng avvalo, ta‘lim muassasalarida maxsus darslar, seminarlar va treninglar tashkil etish zarur. Bunday darslar narkologiya, psixologiya, huquq, jinoyatchilik, ma‘naviyat kabi sohalarda tegishli bilimlarni qamrab olishi kerak. Chunki, giyohvandlikni oldini olish birgina tibbiy muammo emas, u jamiyat ongi, inson sha‘ni, oila baxti, iqtisodiy farovonlik bilan chambarchas bog‘liq masaladir.

Bunda yoshlarga targ‘ibot olib borayotgan mutaxassislar, pedagoglar, psixologlar turli yo‘nalishda tayyorlangan bo‘lishi shart. Dunyo tajribasida giyohvandlikka qarshi kurashda yoshlar ishtiroki samarali bo‘lishining bir nechta moddiy-ma‘naviy asoslari mavjud. Masalan, Yevropadagi ayrim davlatlar bir necha yildan buyon yoshlar bilan hamkorlikda giyohvandlikka qarshi aksiyalar, fleshmoblar, sport musobaqalari va madaniy ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazadilar. Bunday tadbirlar orqali faqat rasmiy choralar bilan chegaralanib qolinmaydi, balki yoshlar mustaqil ravishda tashabbus ko‘rsatishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etiladi. Shu boisdan “yoshlar orqali yoshlarga ta‘sir ko‘rsatish” tamoyili ilgari suriladi, ya‘ni profilaktika ishlari yoshlar ichidan yetishib chiqan liderlar, ko‘ngillilar tomonidan tashkil etilishi yanada samaraliroq bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

## XULOSA

Dissertatsiyada olib borilgan ilmiy izlanishlar va ularning natijalari quyidagi xulosalarni ilgari surishga imkon berdi:

***birinchidan***, giyohvandlik tushunchasi o‘zining genezisida turli tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Dastlab shamanistik va diniy marosimlarda foydalanilgan narkotik moddalarning zamonaviy jamiyatga xos shaklga kelishi ijtimoiy institutlar (din, siyosat, iqtisod) o‘zgarishi bilan uzviy dialektik aloqaga ega. Shu bois giyohvandlikni tahlil qilishda uni alohida ijtimoiy muammo sifatida emas, balki insonning ma‘naviy-axloqiy, kognitiv hamda iqtisodiy sharoiti bilan o‘zaro aloqador murakkab hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarur;

***ikkinchidan***, sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda giyohvandlikning tarqalishida urbanizatsiya, migratsiya, iqtisodiy nomutanosiblik, ijtimoiy o‘zini anglashi kabi omillar yetakchi o‘rin tutadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, yoshlarning ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro ta‘siri zaiflashgani ularning ijtimoiy identifikatsiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va deviant xulq shakllanishiga zamin yaratadi. Bundan kelib chiqadiki, giyohvandlikning intensivikasiyada faqat individual qarorlar emas, balki strukturaviy, sistemaviy omillar ham muhim rol o‘ynaydi;

***uchinchidan***, giyohvandlik muammosini yengishda asosiy e‘tibor ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga qaratilishi zarur. Davlat, fuqarolik jamiyati, din va ta‘lim institutlarining uzviy hamkorligi funksional yondashuv doirasida giyohvandlikka qarshi profilaktika, rehabilitatsiya va reintegratsiya jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda har bir institut o‘ziga xos

resurs va strategik vazifalarga ega bo'lib, ularning kooperatsiyasi tarmoq (network) shaklida ijtimoiy ta'sirchanlikni oshirishga yordam beradi.

**to'rtinchidan**, giyohvandlikni oldini olishda oila – ijtimoiy tarbiya va axloqiy qadriyatlar shakllanishining ibtidoiy, lekin eng muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Oila instituti orqali madaniy me'yorlar, ma'naviy tamoyillar va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi avlodlarga yetkaziladi. Falsafiy nuqtayi nazardan, oila «insonning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlari qondiriladigan birlamchi makon» sifatida ijtimoiy nizolarga bardosh berishning tayanch instituti rolini o'ynaydi. Shu bois giyohvandlik profilaktikasida oila ichidagi psixologik muhit, o'zaro muloqot madaniyati va o'zaro mas'uliyat uyg'unligi dolzarb omil sifatida e'tiborga olinishi lozim;

**beshinchidan**, ta'lim muassasalari yosh avlodning intellektual, ma'naviy va ruhiy kamolotini ta'minlaydigan muhim ijtimoiy institut sifatida giyohvandlikka qarshi kurashda ilg'or metodik yondashuvlarni joriy etishi kerak. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor yo'nalish bo'lmog'i lozim. Shu tariqa, ta'lim muassasalari giyohvandlik profilaktikasining ma'naviy-axloqiy poydevorini yaratishga xizmat qiladi;

**oltinchidan**, davlat siyosati giyohvandlikka qarshi kurashda kompleks yondashuvni nazarda tutishi, jumladan qonunchilik bazasini takomillashtirish, profilaktika dasturlari, reabilitatsiya markazlari tarmog'i va jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi keng miqyosli tadbirlar bilan mustahkamlanishi zarur. Fuqarolik jamiyati va nodavlat notijorat tashkilotlar esa "ijtimoiy ko'mak" formatida bevosita aholi bilan aloqada bo'lib, giyohvandlik xatariga duchor bo'lgan shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash, ularni qo'llab-quvvatlash va reabilitatsion dasturlarni amaliyotga joriy etish orqali muammoning yechimini ta'minlaydi. Shu tariqa davlat va NNT o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning dolzarb komponentiga aylanadi;

**yettinchidan**, giyohvandlikning transmilliy xususiyatga ega ekanligi uni yakkama-yakka emas, balki xalqaro darajada hamkorlikda hal qilishni taqozo etadi. Xorijiy davlatlarning giyohvand moddalar iste'moli va kontrabandasiga qarshi kurash strategiyalari, reabilitatsiya tajribalari, profilaktik dasturlari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularni chuqur o'rganish va moslashtirish orqali, mahalliy sharoitga moslasha oladigan integratsion choralar ko'rish mumkin. Shu bilan birga global konsensus va xalqaro konvensiyalar talablari doirasida hamkorlikni kuchaytirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi;

**sakkizinchidan**, giyohvandlikka qarshi kurashda yoshlar faolligi nafaqat "ijrochilar" yoki "himoyaga muhtoj toifa" sifatida, balki mas'ul subyektlar sifatida ham ko'rilishi lozim. Yoshlarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik harakatlariga jalb etish, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratish orqali ular ijtimoiy o'zgarishlar ishtirokchisiga aylanishadi. Davlat siyosati bu borada yoshlar bilan interaktiv aloqani yo'lga qo'yadigan, ularning fikrlarini inobatga oladigan, tashabbuskorligini rag'batlantiradigan yangi platformalar yaratishi kerak. Zero, giyohvandlikni ildizidan bartaraf etish jarayoni kompleks va

doimiydir hamda har bir fuqaro, ayniqsa yoshlar, ijtimoiy barqarorlikni saqlash jarayonining faol ishtirokchisiga aylanganida samara beradi.

**Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1. Giyohvandlik hodisasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini aniqlash – uni faqat tibbiy yoki psixologik emas, balki keng qamrovli jamiyatiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy omillar bilan bog'liq kompleks ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish.

2. Yoshlar orasida giyohvandlik tarqalishining ijtimoiy-genezis asoslarini aniqlash – oilaviy, iqtisodiy, psixologik va ta'lim muhitidagi omillar ta'sirini empirik metodlar asosida o'rganish.

3. Oila, ta'lim, din, davlat va jamoat institutlarining giyohvandlikka qarshi kurashdagi integrativ rolini tahlil qilish – ma'naviy-immunitet, ijtimoiy-preventiv va monitoring tizimlarini takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

4. Maktab va universitetlarda **“Giyohvandlikka qarshi kurash”** bo'yicha maxsus ijtimoiy fan yoki modullarni joriy etish.

5. **“Antinarkotik tahlil platformasi”** nomli onlayn portal yaratib, unda statistik ma'lumotlar, interaktiv xaritalar, tahlillar va profilaktik dastur yaratish.

6. Niderlandiya, Kanada, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning rehabilitatsiya, profilaktika va ijtimoiy reintegratsiya dasturlarini o'rganib, milliy modelni ishlab chiqish.

7. Xalqaro ekspertlar ishtirokida **“O'zbekiston – giyohvandlikka qarshi barqaror jamiyat”** nomli strategik forum tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.04.2021.F.76.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КАРИМОВА ЗУХРА ШАМСИДДИН ҚИЗИ**

**ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ФАКТОРЫ БОРБЫ С  
НАРКОМАНИЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: СОЦИАЛЬНО-  
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ**

**09.00.04. – Социальная философия**

**АВТОРЕФЕРАТ  
Диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Наманган-2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.1.PhD/Fa1904.**

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех (узбекском, русском, английском (резюме)) языках размещен на веб-странице Наманганского государственного университета ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Дехканов Наримон Бурхонжонович</b> доктор политических наук (DSc), профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Ганиев Баходиржан Садикжанович</b> доктор философских наук (DSc), и.о. профессор <b>Рахмонов Суннатилла Мавлонович</b> доктор философских наук (DSc), доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Наманганский государственный педагогический институт</b>

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.04.2021.F.76.06 по присуждению ученых степеней при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, дом 316, Тел./факс: (+99869) 227-07-61, e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz) Наманганский государственный университет, здание факультета истории, 3-й этаж, 310 кабинет ).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). (Адрес: 160119, город Наманган, улица Бабуршах, дом 316. Тел./факс: (+99869) 227-07-61).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года).

**Р. Т. Жураев**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор политических наук  
(DSc), профессор

**К. О. Махкамов**  
Ученый секретар Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор философии (PhD) по  
социологическим наукам, доцент

**М.Исмоилов**  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней,  
доктор философских наук, профессор

## **Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Зависимость и незаконный оборот наркотиков по сей день вызывают несоответствие в образе жизни людей из-за их роста во всем мире. Он становится источником социальных противоречий в обществах, негативно влияет на антропологию человека как опасность для здоровья, рассматривается как угроза стабильности общества и интерпретируется как основа разрушения духовно-нравственных ценностей. Это становится проблемой национальной безопасности в странах и других сообществах, где молодежь занимает значительное место в демографической структуре. Согласно мировой статистике, большую часть группы, страдающей наркоманией, составляет молодежь, поэтому философское исследование ее духовно-образовательных факторов остается актуальным вопросом с точки зрения общественного развития. Молодежь является основной социальной группой, определяющей стратегический потенциал любого общества, ее интеллектуальное, нравственное и физическое здоровье определяет будущее общества. Поэтому все большую популярность приобретает изучение эффективных способов борьбы с наркоманией среди молодежи не только в рамках медицинской или правовой проблематики, но и в более широком социально-философском контексте.

В мире все большую актуальность приобретают системные стратегии, направленные на укрепление здоровья, психической устойчивости и социальной ответственности молодежи. В частности, Управление ООН по борьбе с наркотиками и преступностью (UNODC) реализует комплексные профилактические проекты по борьбе с наркоманией среди молодежи. Благодаря этим программам в сознании подрастающего поколения формируются принципы здорового образа жизни, духовного иммунитета и социальной ответственности. Также в сотрудничестве с ЮНЕСКО и Всемирной организацией здравоохранения (ВОЗ) в рамках образовательной системы разрабатываются учебные модули, обучающие философии здорового образа жизни. Эти программы направлены на то, чтобы молодежь воздерживалась от психоактивных веществ, и служат формированию моральных ценностей, социальной осведомленности и культуры здоровья. В рамках Европейского союза EMCDDA проводит статистический мониторинг зависимости и разрабатывает профилактические меры, оценивая влияние цифровой среды, социальных сетей, семьи и школьной среды. А в США SAMHSA организует тренинги, способствующие восстановлению психического здоровья, управлению стрессом и семейной терапии.

Проводимая в нашей стране работа по развитию и совершенствованию проблемы борьбы с наркоманией среди молодежи показывает, что данная проблема анализируется не только как юридическое или медицинское, но и как комплексное социально-философское явление. Следует отметить, что «в жизнь общества вступает молодое поколение нового общества, всесторонне развитые молодые люди с гражданской ответственностью и современным

мировоззрением, для которых создаются достойные условия жизни»<sup>21</sup>. Особое внимание уделяется укреплению чувства бдительности в отношении зависимости среди молодежи за счет расширения образовательных и обучающих программ. В целях защиты молодежи от наркомании в стране через систему образования проводится системная социально-образовательная работа. Пропагандируется здоровый образ жизни в школах и высших учебных заведениях через «Недели антинаркотической борьбы», семинары и тренинги. Реализуются профилактические программы с участием таких организаций, как «Центр духовности и просвещения», Союз молодежи. В рамках «Пяти инициатив» реализуются проекты, направленные на стимулирование критического мышления, творчества и социальной активности. В «Молодежных центрах» проводятся социальные акции, видеоролики, тренинги, формируется эффективная модель профилактики на основе «влияния сверстников».

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, которые должны быть реализованы в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Положения о порядке оказания медицинской помощи лицам, находящимся под воздействием наркотических средств или в состоянии алкогольного опьянения», Законе Республики Узбекистан от 5 октября 2024 года № УП-971 «О внесении изменений и дополнений в Уголовный, Уголовно-процессуальный кодексы Республики Узбекистан и Кодекс Республики Узбекистан Об административной ответственности, направленные на борьбу с незаконным оборотом наркотических средств, их аналогов или психотропных веществ, а также сильнодействующих и ядовитых веществ», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2021 года № ПФ-60 «о новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», от 6 мая 2024 года № ПФ-73 «О мерах по пресечению незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ в Республике Узбекистан, предотвращению их негативного воздействия на здоровье населения и генофонд нашей страны», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 4 октября 2024 года № 631 «О мерах по организации деятельности Государственной комиссии по контролю за наркотическими средствами и психотропными веществами и ее территориальных комиссий», № 644 от 4 ноября 2022 года «Об утверждении Положения о порядке оказания медицинской помощи лицам, находящимся в состоянии алкогольного, наркотического опьянения или в состоянии необычного опьянения» и иных нормативных правовых актов по данному вопросу».

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления Республиканской программы развития науки и технологий I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном

---

<sup>21</sup>Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.29.

и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Хотя в древности термин «наркомания» не был столь четко определен, как сегодня, идея воздержания от веществ, ведущих к умственной и физической деградации, и стремление к удовольствию и добродетели были центральной темой в трудах классических философов, таких как Платон, Аристотель и Гиппократ<sup>22</sup>. Например, Платон, говоря о необходимости построения совершенной формы общества, в котором каждый индивидуум должен направить свой потенциал к истинному духовному совершенству, резко критиковал обычаи, отвлекающие человека от его природной сущности, в том числе и противоречащие чистому разуму. В этом же смысле, хотя Аристотель подчеркивает такие качества, как справедливость, умеренность, честность и настойчивость, он также освещает, как эти качества формируются в сознании молодого поколения. По его словам, дефект, который побуждает человека жить хаотичной жизнью, насколько ему известно, – это “похотливые желания”. Хотя эксперименты Гиппократа не содержат прямых терминов, которые бы напрямую относились к медицинским проблемам, связанным с лекарственными средствами, в них содержатся наблюдения об обязанностях врачей, целителей и общества по отношению к больным людям, а также о вредном воздействии различных лекарственных средств на организм человека.

Проблема укрепления духовного совершенства человека косвенно или прямо освещена во многих трудах мыслителей Средневековья. Философы и ученые, такие как Абу Наср аль-Фараби, Авиценна и Газзали<sup>23</sup>, хотя и не описывали концепцию зависимости в ее нынешнем виде, особое внимание уделяли воздержанию от пороков, которые ведут человека к духовной деградации, отрыву от разума или различным видам «духовной занятости». Эти взгляды основаны на своеобразии социальной среды того времени, а также восточных духовных и нравственных ценностях.

Проблема наркомании всесторонне анализировалась различными зарубежными учеными, философами, социологами, психологами, прежде всего потому, что она неразрывно связана с духовным и устойчивым развитием личности, сохранением духовно-нравственных ценностей в обществе. Начиная со второй половины XX века З. Бауман, С. Жижек, М. Нуссбаум, Ю. Хабермас, М. Фуко, Дж. Равлс, М. Кастеллс, У. Бек<sup>24</sup>

---

<sup>22</sup> Платон. Государство / Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н.Трубетский проект, 2015. – 398 с.; Лурье С. Я. Демокрит: Тексты, перевод, исследования. – Ленинград: Наука, 1970. – 664 стр; Аристотель. Политика. – Москва: Издательство АТС, 2022. – 384 с.; Peltier, Leonard F. “The Genuine Works of Hippocrates”. *Clinical Orthopaedics and Related Research*, 2002. – 400 p.

<sup>23</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004. – 160 b.; Абу Али ибн Сино. Тиббий рисолалар. – Тошкент: Фан, 1987. – 322 б; G‘azzoliy, Hujjatul-islom Abu Homid. “Ihyou Ulumiddin”. – Qohira: Dar al-Kutub, 2002. – 286 p.

<sup>24</sup> Bauman, Zygmunt. *Liquid Modernity*. Polity Press, 2000. – P. 58.; Žižek, Slavoj. *Event: Philosophy in Transit*. Penguin, 2014. – P. 69.; Nussbaum, Martha. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press, 2011. – P. 105.; Habermas, Jürgen. *The Theory of Communicative Action*. Beacon Press, 1984. – P. 87.; Foucault, Michel. *Discipline and Punish*. Vintage Books, 1977. – P. 96.; Rawls, John. *A Theory of Justice*.

подчеркивают необходимость гармонизации социальных, экономических и духовных факторов для полной реализации молодыми людьми своих способностей, а также взаимодействие таких пороков, как наркомания, с социальными механизмами в обществе, в условиях, когда прочные основы социальной жизни личности ослабевают.

Проблема борьбы с наркоманией среди молодежи широко изучена и в Российском научном пространстве, проблема анализируется на стыке различных наук в связи с ее неразрывной связью с социальными, психологическими и философскими аспектами жизни общества. В частности, такие российские ученые, как Л. А. Резниченко, Ю. В. Аверина, В. А. Овчаренко, В. М. Данилов, Ю. П. Луценко, Н. В. Михайловская, В. М. Данилов<sup>25</sup> анализируют негативное влияние наркомании не только на организм, но и на духовную и познавательную сферу, и одновременно рассматривают вопросы профилактики, реабилитации, социального контроля, воспитания.

В последние годы она также бурно развивается в Узбекистане и привлекает внимание представителей различных дисциплин — философов, социологов, психологов, педагогов, юристов. Среди местных исследователей - Ю. Эргашева, У. Кучкаров, У. Рустамов, А. А. Расулев, И. Исмаилов, И.Ю. Фазилов, Ш.Т. Джуманов, Ж. Мусаев, А. Эркабоев, М. Палванов<sup>26</sup> и др. проанализировали негативное влияние проблемы на общественную жизнь, нарушая жизнедеятельность различных возрастных групп и подрывая социальную стабильность с более правовой и социологической точки зрения.

Вышеуказанные исследования, часто сосредоточенные на психологическом, социологическом или юридическом анализе,

---

Harvard University Press, 1971. – P. 234.; Castells, Manuel. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2010. – P. 181.; Beck, Ulrich. Risk Society: Towards a New Modernity. Sage Publications, 1992. – P. 119.

